

ERKIN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Muxlisa Rustamova Ikromjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

E.mail: muxlisaxolmurotova0553@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda erkin ta'lim texnologiyasining bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi samaradorligi tadqiq qilindi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, eksperimental mashg'ulotlar va ijodiy faoliyat testlari metodlari qo'llanildi. Kuzatuv orqali bolalarning mustaqil faoliyati va tashabbuskorligi tahlil qilindi, eksperimentlar yordamida erkin o'yin, rassomlik, musiqiy va drammatik mashg'ulotlarning ta'siri baholandi, testlar orqali ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, erkin ta'lim texnologiyasi bolalarda fantaziya, ijodiy fikrlash va o'zini ifoda etish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu asosda xulosa qilinadiki, erkin ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijodiy qobiliyat rivojlanishida samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: E'ркиn ta'lim texnologiyasi, maktabgacha ta'lim, ijodiy qobiliyat, pedagogik kuzatuv, eksperiment, test, bola rivojlanishi.

Abstract: The article examines the effectiveness of free learning technologies in developing creative abilities in preschool children. The study employed pedagogical observation, experimental activities, and creative performance tests as research methods. Observation allowed analysis of children's independent activity and initiative; experiments assessed the impact of free play, drawing, musical, and dramatic activities; and tests evaluated problem-solving and creative thinking skills. The results demonstrated that the use of free learning technologies significantly enhances children's imagination, creative thinking, and self-expression. It is concluded that free learning serves as an effective pedagogical tool for fostering personal and creative development in preschool-aged children.

Keywords: free learning technologies, preschool education, creative abilities, pedagogical observation, experiment, test, child development.

Kirish

Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri -PF-5198-son Farmmonda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarning har tomonlama, jumladan ijodiy rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, uning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iborat ekanligi qayd etilgan [2]. Maktabgacha ta'lim jarayonini tartibga soluvchi muhim hujjatlardan biri-802-sonli qarorda bolalarning mustaqil

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

fikrlashi, ijodiy faoliyati va tashabbuskorligini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [3]. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari va ularga ta'lim-tarbiya berishning innovatsion yondashuvlari ijodiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan [4]. Maktabgacha pedagogika nazariyasida bolalarning ijodiy qobiliyatlari o'yin, erkin faoliyat va ta'limiy muhit orqali shakllanishi muhim omil sifatida qaraladi [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalahda erkin ta'lim yondashuvlarining ahamiyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi [6]. Shuningdek bolalarni erkin shaxs sifatida shakllantirish va ularning ijodiy rivojlanishini ta'minlashda ta'lim muhitining roli katta ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [7]. So'ngi ilmiy izlanishlar maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs xususiyatlari, jumladan ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishi muhim omil ekanligini va bu jarayonni samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi [8].

Ushbu tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta'limda erkin ta'lim texnologiyasi asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning gipotezasi – erkin ta'lim texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy etish bolalarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Erkin ta'lim texnologiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Ijodiy qobiliyatlarni baholash metodlarini aniqlash;
3. Eksperimental o'rganish orqali erkin ta'lim texnologiyasining ta'sirini aniqlash.

Metodlar

Mzkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotida tajriba-sinov asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 40 nafar 5-6 yoshli tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash asosida ikki guruhga ajratildi:

- Nazorat guruhi-20 nafar bola;
- Eksperimental guruh-20 nafar bola;

Tadqiqot 2025-yil yanvar-mart oylarida (12-hafta davomida) olib borildi.

Tadqiqot metodlari:

1.Diagnostik test (TTCT elementlari asosida)

Bolalarning ijodiy fikrlash darajasi Torrance testining moslashtirilgan topshiriqlari asosida baholandi. Test 3ta mezon bo'yicha o'tkazildi:

- fikrlar soni (fluency)
- o'ziga xoslik (originality)
- moslashuvchanlik(flexibility)

Har bir mezon 10 ballik tizimda baholandi, umumiy maksimal ball-30 ball.

2.Pedagogik kuzatuv metodi

Tajriba davomida bolalarning;

- mustaqil faoliyati
- tashabbus ko'rsatishi
- ijodiy yondashuvi

Maxsus kuzatuv varaqalari asosida baholandi. Kuzatuv 2 marotaba olib borildi.

3.Eksperimental ta'sir (erkin ta'lim texnologiyasi)

Eksperimental ta'sir erkin ta'lim texnologiyasi asosida mashg'ulotlar tashkil etildi;

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- erkin rasm chizish ,
- rolli o'yinlar,
- muommoli vaziyatli topshiriqlar,
- tanlov asosidagi faoliyatlar,

Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta, har biri 25 daqiqadan o'kazildi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy, o'qituvchi boshqaruvidagi mashg'ulotlar olib borildi.

4.Suhbat metodi

Bolalar bilan qisqa individual suhbatlar o'tkazilib, ularning:

- tasavvur darajasi,
- mustaqil fikrlashi,
- muommoga yondashuvi aniqlashtirildi.

5.Statistik tahlil metodi

Olingan natijalar foiz (%) va o'rtacha ko'rsatkich orqali tahlil qilindi.Tajriba boshidagi va oxiridagi natijalar taqqoslanib, o'zgarish dinamikasi aniqlashtirildi.

Natijalar

1.Diagnostik test (TTCT elementlari)

Nazorat guruhi 20 nafar bola

- Fikrlar soni(fluency)-14,2 ball
- O'ziga xoslik (originality)-12,5 ball
- Moslashuvchanlik (flexility)-13,0 ball
- Umumiy -39,7 ball

Eksperimental guruhi 20 nafar bola

- Fikrlar soni -20,9 ball
- O'ziga xoslik-18,7 ball
- Moslashuvchanlik-19,3 ball
- Umumiy -58,9 ball

Tahlil: Eksperimental guruhning umumiy bali 39,7\58,9 bu 48% ga oshgan natijani beradi.

2.Pedagogik kuzatuv

-Nazorat guruhi: haftasiga o'rtacha 3ta mustaqil tashabbus, faoliyat 45% mustaqil bajarildi.

-Eksperimental guruhi: haftasiga o'rtacha 7ta mustaqil tashabbus, faoliyat 77% mustaqil bajarildi.

Tahlil:Mustaqil faoliyat darajasi haqiqiy kuzatuvlar asosida o'rtacha 45%\77% ya'ni bolalar 32% ko'proq mustaqil faoliyat ko'rsatdi.

3.Erkin ta'lim mashg'ulotlari (ijodiy vazifalar)

-Nazorat guruhi: mashg'ulot topshiriqlarini 10ta vazifadan o'rtacha 5,2 tasi bajarildi (52%)

-Eksperimental guruhi: 10ta vazifadan o'rtacha 8,8 tasi bajarildi (88%)

Tahlil:Natija real mashg'ulotlarga asoslangan bo'lib, erkin ta'lim topshiriqlarni bajarish darajasini 36% ga oshirdi.

4.Suhbat metodi (tasavvur va muommo yechish)

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

**NATIJALARNING TAHLILI:
GURUHLAR BO'YICHA QIYOSIY JADVAL**

Guruh	Tasavvur (maks 10 ball)	Muammo yechish (maks 10 ball)	Umumiy
Nazorat	6	5,8	11,8
Eksperimental	8,7	9	17,7

Manba: Tadqiqot natijalari

1-rasm. Nazorat va eksperimental guruhlar natijalarining qiyosiy tahlili.

Tahlil: suhbat natijalariga ko'ra eksperimental guruhda tasavvur va muammo yechish ko'nikmalari 50% ga oshirilgani aniqlandi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari erkin ta'lim texnologiyasining maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Diagnostik test natijalarida eksperimental guruh bolalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi, bu ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvining rivojlanganini anglatadi. Pedagogik kuzatuv va eksperimental mashg'ulotlar jarayonida ham eksperimental guruhda mustaqil faoliyat va tashabbus yuqori bo'ldi. Bu erkin ta'lim sharoitida bolalarning faolligi va qiziqishi ortishi bilan izohlanadi. Suhbat natijalari esa eksperimental guruhda tasavvur va muammolarni hal etish ko'nikmalari yaxshiroq shakllanganini ko'rsatdi. Umuman, olingan natijalar erkin ta'lim texnologiyasi bolalarning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Eksperimental mashg'ulotlar jarayonida olingan natijalar bolalarning ijodiy topshiriqlarni bajarish darajasi erkin ta'lim sharoitida ancha yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu esa ta'lim jarayonida tanlov erkinligi, faoliyat turlarining xilma-xilligi va muommoli vaziyatlarning yaratilishi bolalarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida erkin ta'lim texnologiyasining ushbu jarayonga ta'siri tajriba-sinov asosida o'rganildi va uning samaradorligi aniqlandi.

1. Erkin ta'lim texnologiyasini qo'llash natijasida bolalarning ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi va ular mustaqil hamda original g'oyalar ilgari surishga erishdi.

2. Eksperimental guruhda mustaqil faoliyat va tashabbuskorlik darajasi yuqori bo'lib, bu erkin ta'lim muhitining bolalar faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

3. Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalar erkin tanlov va faoliyat xilma-xilligi sharoitida yuqori natijalar ko'rsatdi, bu esa erkin ta'lim texnologiyasining amaliy samaradorligini ko'rsatadi.

4. Tadqiqot natijalari bolalarda tasavvur, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanganligini ko'rsatdi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Umuman olganda erkin ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim jarayoniga jorish etish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi hamda uni amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). *PF-5198-son Farmon*.
2. O'zbekiston Respublikasi. (2020). *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun*.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *802-son Qaror*.

II. Ilmiy adabiyotlar

4. Djurayeva, B.R. va boshq. (2018). *Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari*.
5. Qodirova, F.R. va boshq. (2019). *Maktabgacha pedagogika*.
6. Sattorova, F.S. (2023). *Maktabgacha ta'limda erkin tarbiya asoslari*.
7. Sultonova, N. (2023). *Maktabgacha yoshdagi bolalarni erkin shaxs sifatida tarbiyalash*.
8. Umarova, M. (2024). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs rivojlanishi*.